O‘ZBEK SHEVALARIDA FRAZEOLOGIZMLAR(IBORALAR)

Samarqand davlat chet tillari instituti

Sharq tillari fakulteti 2410-guruh talabasi

Mengliyeva Yulduz

Ushbu ishda o‘zbek shevalarida qo‘llaniladigan iboralar (frazeologizmlar)ning mohiyati, asosiy xususiyatlari va turlari bayon etiladi. Sheva iboralarining nutqni boyitishdagi roli, ularning xalq hayoti, urf-odatlari va tafakkuri bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, iboralarning kelib chiqish manbalari, hududiy farqlari hamda adabiy til bilan o‘zaro munosabati haqida umumiy ma’lumotlar keltiriladi

Kalit so‘zlar:sheva, ibora, frazeologizm, ma’no, nutq, xalq tili, hudud, ifoda, so‘z birikmasi, til boyligi

Tilshunoslikda iboralarni o‘rganadigan bo‘lim frazeologiya deb ataladi. Frazeologizmlar — kamida ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topib, tarkibiy qismlari ajralganda o‘zining asl ma’nosini yo‘qotadigan, ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan barqaror birliklardir. Ular nutqqa obrazlilik, ta’sirchanlik va milliy rang-baranglik beradi.O‘zbek shevalaridagi iboralar tilning muhim va boy qismi hisoblanadi. Ular ko‘chma ma’noda qo‘llanib, nutqqa ta’sirchanlik beradi. Har bir hududda iboralar o‘ziga xos tarzda ishlatiladi. Sheva iboralari insonning his-tuyg‘ularini aniq ifodalashga yordam beradi. Shu sababli ular til boyligini oshiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

O‘zbek shevalari va ularning frazeologik boyligi

O‘zbek tili uch asosiy sheva guruhiga bo‘linadi:

Qarluq shevalari (Toshkent, Farg‘ona)

Qipchoq shevalari (Qashqadaryo, Surxondaryo, qisman Jizzax)

O‘g‘uz shevalari (Xorazm)

Har bir sheva o‘ziga xos iboralar tizimiga ega bo‘lib, ular hudud aholisi turmush tarzi, tarixiy tajribasi va madaniy muhitini aks ettiradi.

O‘zbek shevalarida ishlatiladigan iboralardan namunalar

Tovonidan o‘t chaqnamoq-chaqqon

So‘xtasi sovuq-ko‘rinishi qo‘rqinchli

Piyoz po‘stidek bo‘lib ketdi-qorni ochqab ketgan-yuragi ozib ketdi

Emachang ezilmasin-rahming kelmasin

Ichini it tirnadi-sabrsiz, toqatsiz

O‘lganning ustiga tepkandek qildi-shu yetmay turgandi

Duxini op qo‘ydi-qo‘rqitdi

Beti buzildi-xafa bo‘ldi

Kalla qo‘ydi-xato qilib qo‘ydi

Jag‘i ochildi-ko‘p gapirdi

Qo‘yni yetaklaganday-aytganini qildiradi

Eshakka to‘qim qo‘yganday-yarashmagan

Og‘zi teshik-tushurib ovqat yeydigan

Eldan qoma eshagim-hamma qilgan ishni sen ham qil

Oyog‘idan osilmoq-charchamoq

Mulla mingan eshakday-yaxshi bo‘lib ko‘rinmoq

Betidan traktor o‘tgan-xunuk

Kalishi teshilmoq-biror joyga ko‘p bormoq

Og‘ziga talqon solganday-jim bo‘lmoq

Qovog‘idan qor yog‘moq-xafa

Dimog‘i chog‘-xursand

Og‘zi bo‘sh-hamma gapni aytib qo‘yadi

Sho‘rvangni oqizma-yig‘lama

Kallang bilan urishib qolganmisan-tentak bo‘ldingmi

Ko‘zi och-hech narsa ko‘rmaganday

Nafsingga nasihat ber-o‘zingni tuta bil

Qornini qappaytirmoq-bemalol erkin o‘tiradigan

Ishini pismiqlanib bajarmoq-ishini tez bitirmoq

Tilidan tutildi-biror narsani xato aytib qo‘ydi

Arpani xom o‘rmoq-ishini chala qilmoq

Ko‘ngliga sig‘may qoldi-yoqmay qoldi

Hammayoq alahsirab ketibdi-chalkashib ketibdi

Gapni tortib turadi-vaziyatni boshqarib turadi, ushlab turadi

Bir siqib qo‘yadi-qattiqqo‘l

Gapni tagiga yetmadi-to‘liq tushunmadi

Indamay sum-sum yuradi-juda jim

Bir chippa bo‘lib ketdi-tez jahli chiqdi

O‘zbek shevalaridagi iboralar tilimizni boyitadi va nutqni yanada ta’sirli qiladi. Ular xalqning hayoti, fikrlashi va an’analarini aks ettiradi.

Shevalar turlicha bo‘lsa ham, bu iboralar umumiy tilimiz rivojiga hissa qo‘shadi. Shuning uchun ularni o‘rganish va saqlash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Ashirboyev S. — O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi.

Jo‘rayev N. — O‘zbek frazeologiyasi asoslari. Toshkent: Fan, 2006.

Mahmudov N. — O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: Fan, 1999.

Rahmatullayev Sh. — O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

Yo‘ldoshev B. — O‘zbek tili frazeologiyasi. Toshkent: Universitet, 2008.